

## QOVUNNING “OQ NOVOT” VA “ZARGULOBI” NAVLARI XOSILDORLIGIGA BIOSTIMULYATORLARNING TA’SIRI

**Bobojonov Otabek Xakimboy o‘g‘li**

*Urganch Davlat Universiteti, Mevachilik va sabzavotchilik kafedrası o‘qituvchisi*

**Raximboyeva Feruza Shuhrat qizi**

*Urganch Davlat Universiteti talabasi*

**Xasanova Guzalay Xamza qizi**

*Urganch Davlat Universiteti talabasi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so‘zlar:** Oq novvot, Zargulobi, uzgumi gidrogel, biogumus, qovun, regulyator.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada biostimulyator moddalarini qovunning “Oq novvot” va “Zargulobi” navlari hosildorligiga ta’siri o‘rganildi. Bunda UzGumi va gidrogel moddasining turli konsentratsiyalarini meva soni, og‘irligi hamda tovarboplik xususiyatlariga ta’siri o‘rganildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

**Kirish:** Ma’lumli, hozirgi kunda dunyo miqyosida meva va sabzavotlarni kunlik iste’mol extiyojini taminlovchi sog‘lom ovqatlanishni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Qovun poliz ekinlari ichida asosiy ekinlardan biri bo‘lib, uni ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Ammo regulyatorlarning qovun hosildorligiga ta’siri bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmagan.

Biz ushbu tajribada 2022 yilda qovunni o‘rtapishar Oq novvot hamda Zargulobi navlarini o‘sib rivojlanishiga biostimulyator moddalarini ta’sirini o‘rgandik. Bunda ilk bor Xorazm viloyatida sharoitida qovunni hosildorligi va qurg‘oqchilikka chidamliligini oshirishda ushbu biostimulyatorlarning turli xil me’yorlari taqqoslanib sinab ko‘rildi. Tajribada 4 ta variant, gidrogelni gektariga 5,5 kg va 12 kg qo‘llash variantlariga taqqoslovchi sifatida UzGumini 130 g/ga me’yorida va o‘g‘itsiz, oddiy ekish nazorat qilib olindi. Qovun urug‘lari yillar davomida 21-22 may sanasida qo‘shqator lentasimon usulda  $\frac{210+70}{2} \times 60$  sm ekish sxemasida ekildi. Tajriba 4 qaytariqli, maydoncha 2 qatorli, uning oziqlanish maydoni 11,2 m<sup>2</sup> Har bir maydoncha qo‘shqator uzunligi 4 m, eni 2,8 m. va maydonchada 12 o‘simlik joylashgan [1].

Dala tajribalarida gidrogelni qo‘llashda urug‘ni ekishdan oldin tuproqqa ishlov berish vaqtida, ya’ni urug‘ ekish bilan birga o‘tkazildi. Bunda gidrogelni idishlarga solib, 1 gramiga 1 litr me’yorda toza suv quyildi va 2-3 soat davomida suvni shimib olgandan so‘ngra dala maydoniga olib borildi. Qovun urug‘i ekiladigan har bir uyalarga tavsiya etilgan me’yorlar, ya’ni variantlar bo‘yicha gidrogelni solib tuproqqa aralastirildi, so‘ng 1-2 sm tuproq solib urug‘lar qo‘yiladi va urug‘lar 3-5 sm tuproq bilan ko‘mildi.

Fenologik kuzatuv natijalariga ko‘ra, qovunni o‘rtapishar navlari urug‘larining yoppasiga (75 %) unib

chiqishi Zargulobi navida variantlararo 7-10 kunni tashkil etdi. Tajribada gidrogel moddasida gektariga 12,0 kg qo'llanilgan variantda eng erta urug'larni unib chiqishi kuzatildi va bu ko'rsatkich 7 kunni, va gidrogelni gektariga 5,5 kg qo'llanilgan variantida esa 8 kunni tashkil etdi. UzGumi moddasida gektariga 130 g qo'llanilgan variantda 9 kunda unib chiqqan.

Qovunning o'rtapishar Zargulobi va Oq novvot navlarining otalik va onalik gullarini paydo bo'lishi ham erta unib chiqqan variantlarda ertaroq bo'lishi kuzatildi. Bu albatta nixollarning rivojlanishi va tuproq namligi, qulay sharoit bilan bog'liq. Tajribada barcha navlarda ham otalik gullari eng erta paydo bo'lgan varianti gidrogelni gektariga 12,0 qo'llangan varianti bo'ldi va u 31-35 kunni tashkil qildi. Nazorat variantda esa otalik gullar 36-37 kunda paydo bo'lgan. Onalik gullarni paydo bo'lishida ham navlararo eng erta gullagan gidrogelni gektariga 12,0 qo'llangan varianti bo'ldi va u 41-42 kunni tashkil qildi. Nazorat variantda esa bu ko'rsatkich 45-46 kunni tashkil qildi.

Tajribada biometrik o'lchov va hisoblash ishlari olib borildi. Biometrik o'lchov natijalariga ko'ra, qovunni barcha o'rtapishar navlari o'simliklarining asosiy poyasi uzunligi 132-172 sm ni tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich barcha navlarning gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantlarida bo'lib, u 164-175 sm ekanligi aniqlandi. Nazorat variantga nisbatan asosiy poyaning uzunligi 23-35 sm yuqori o'sganligi ma'lum bo'ldi. UzGumi 130 g/ga qo'llangan variantda esa bu ko'rsatkich past bo'ldi. O'simliklarning yon shoxlari soni hisoblab chiqilganda, o'rtapishar Zargulobi navida 3,0-3,4 dona bo'lib, nisbatan yuqori ko'rsatkich 3,4 dona gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantlarida kuzatildi.

Oq novvot navining ushbu variantlarida 3,7 dona yon shox hosil qilganligi aniqlandi. Nisbatan kam shoxlangan nazorat variantda kuzatildi.

Yon shoxlarning umumiy uzunligi bo'yicha xisbolash natijalariga ko'ra, Zargulobi navida 419-577 sm, Oq novvot navida 552-738 sm ni tashkil etgan. O'rtapishar navlar ichida yon shoxlarning umumiy uzunligi bo'yicha nisbatan yuqori ko'rsatkich, ya'ni kuchli o'sgan variant gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llanganda Zargulobi navida 577 sm, Oq novvot navida 739 sm bo'ldi. Nazoratga nisbatan 157-217 sm ga yuqori o'sganligi aniqlandi.

Tajribada qovunni o'rtapishar navlari o'simligining yer ustki qismini kuchli o'sib rivojlanishiga gidrogel moddasini tuproqqa solib yetishtirish ayniqsa, gektariga 12,5 kg solingan variantida eng yuqori natijani, ya'ni nazoratga nisbatan asosiy poyani uzunligi 12 sm ga, yon shoxlar sonini 0,4 donaga, umumiy yon shoxlar uzunligini 157-217 sm ga yuqori ekanligini ko'rsatgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan hosildorlik ko'rsatkichlariga ushbu moddalarning ta'siri taxlil qilinganda, mevalarning o'rtacha soni va vazni, hosildorlik hamda tovarbop hosil ulushi aniqlandi (1-jadv.).

Qovun o'simlikdagi mevalarning o'rtacha soni va meva vazni bo'yicha Zargulobi navida variantlararo har bir o'simlikda 4-5 donadan meva hosil qilganligi ma'lum bo'ldi. Nisbatan yuqori ko'rsatkich gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantida 1 donaga ko'p, ya'ni 5 donani tashkil etgan. Oq novvot navida 5-7 dona meva hosil qilgan bo'lib, nazorat variantga nisbatan 2 dona ko'p meva hosil qilgan gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantida kuzatildi.

Mevaning vazni bo'yicha Zargulobi navida variantlararo mevalarning o'rtacha vazni 2,0-2,6 kg oraliqda bo'lgan, Oq novvot navi esa nisbatan kichikroq vaznda, ya'ni 1,3-2,1 kg,

**1-jadval. Qovunni o'rtapishar Oq novvot va Zargulobi navlarini hosildorlik ko'rsatkichlariga turli xil biostimulyatorlarning ta'siri (2022 y.).**

Navlar	Aralashmalar	Mevaning o'rtacha		Hosildorlik		
		soni, dona	vazni, kg	t/ga	nazoratga nisbatan, %	tovarbop hosil ulushi, %
Zargulobi	O'g'itsiz - nazorat	4	2,0	17,8	100	92
	Gidrogel-5,5 kg/ga	4	2,3	18,4	103	94
	Gidrogel-12,0 kg/ga	5	2,8	20,5	113	96
	UzGumi- 130 g/ga	4	2,2	18,1	102	93
Oq novvot	O'g'itsiz - nazorat	5	1,3	17,2	100	91
	Gidrogel-6,0 kg/ga	6	2,0	19,6	114	95
	Gidrogel-12,0 kg/ga	7	2,1	22,0	121	97
	UzGumi- 130 g/ga	6	1,8	18,9	110	96

Tajribada har qaysi navlarda ham mevaning o'rtacha vazni eng yuqori ko'rsatkichni gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantlarida kuzatildi va u Zargulobi navida 2,8 kg ni, Oq novvot navida 2,1 kg, ni tashkil etdi. UzGumi preparati qo'llanilgan variantlarda ham barcha navlarda o'simlikdagi meva soni va vazni bo'yicha nazorat variantga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Tovarbop hosildorlik qovunni o'rtapishar Zargulobi navini barcha variantlarida 17,8-20,5 t/ga ni tashkil etgan bo'lib, bunda barcha variantlar nazorat variantdan yuqori hosil to'plaganligi aniqlandi. Ayniqsa gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantida (20,5 t/ga) 13 foizga yuqori hosil berganligi ma'lum bo'ldi. Gidrogelni 5,5 kg qo'llangan va UzGumi variantlarida nazoratga nisbatan 2-3 foizga yuqori hosil to'plagan.

**Xulosa.** Obinovvot navida bu ko'rsatkich variantlararo 17,2-20,8 t/ga ni tashkil etib, barcha variantlar nazoratga nisbatan yuqori hosil bergan. Nazorat variantga nisbatan eng yuqori hosil gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantida (22,0 t/ga) 22 foizga yuqori berganini ko'rishimiz mumkin. Gidrogelni 5,5 kg qo'llangan va UzGumi qo'llanilgan variantlarida nazoratga nisbatan 10-14 foizga yuqori hosil to'plagan.

Eng yuqori tovarbop hosil gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantida (30,3 t/ga) 9 foizga yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Gidrogelni 5,5 kg qo'llangan va UzGumi variantlarida nazoratga nisbatan 1-5 foizga yuqori hosil to'plaganligi ma'lum bo'ldi.

Tajribada qovunni o'rtapishar navlarini yetishtirishda turli xil tuproq aralashmalari va me'yorlarini hosildorlik ko'rsatkichiga ta'siri aniqlandi. Bunda eng yaxshi natija gidrogelni gektariga 12,0 kg qo'llangan variantlarida Zargulobi navida (20,5 t/ga) 13 foizga, Oq novvot navida (22,0 t/ga) 21 foizga to'g'ri keldi.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. – Moskva: Agropromizdat, 1985. – S. 223-290.
2. Qurboniyazov R. Xorazm geografiyasi. Urganch. 1997. -B. 45-50.
3. Litvinov S.S. Metodika polevogo opyta v ovoшеvodstve. Moskva. GNU VNIIO. 2011. – S. 648.
4. Metodika gosudarstvennogo sortoispytaniya selskoxozyaystvennyx kultur. Выпуск IV Kartoffel, овощные i бахчевые культуры. – Moskva Kolos, 1975. – S. 36-46.